



UDK: 947.08: 631.587 (021)

Iqbol JABBAROVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti, PhD
E-mail: iqbol.jabbarova@gmail.com

Qarshi davlat texnika universiteti professori Y. Ergasheva taqrizi ostida

CHO'LI BEGIMQULOV – QASHQADARYO MIROBLARI OTASI

Annotatsiya

Ushbu maqola Dasht qishlog'i irrigatsiya tarixida Cho'li Begimqulovning tutgan o'rni va uning mintaqa rivojiga qo'shgan amaliy hissasini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqotda Begimqulovning miroblik faoliyati, suv taqsimoti va sug'orish inshootlarini barpo etishdagi tashabbuslari, shuningdek, qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari yoritiladi. Muallif Begimqulovning halollik, fidoyilik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarini bilan bir qatorda, yoshlarni ilmiy qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarini ham tarixiy manbalar asosida ochib beradi. Maqolada Cho'li Begimqulovning Dasht qishlog'iga suv keltirish, klub va choyxona qurdirish, chorvadorlar uchun qo'tonlar barpo etish, Novur va Saksandara qishloqlarida chorva sonini keskin oshirish kabi tashabbuslari alohida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Cho'li Begimqulov, Dasht qishlog'i, mirob, irrigatsiya tarixi, suv ta'minoti, bunyodkorlik, halollik, fidoyilik, sovet davri tekshiruvlari, chorvachilik rivoji, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy taraqqiyot.

ЧУЛИ БЕГИМКУЛОВ – ОСНОВОПОЛОЖНИК МИРАБОВ КАШКАДАРЬИНСКОГО РЕГИОНА

Аннотация

В данной статье научно анализируется роль Чули Бегимкулова в истории ирригации деревни Дашт и его практический вклад в развитие региона. Исследование раскрывает его деятельность как мироба, инициативы по распределению воды и строительству оросительных сооружений, а также масштабные работы, направленные на улучшение социально-экономической жизни деревни. Автор показывает такие человеческие качества Бегимкулова, как честность, самоотверженность и преданность делу, а также его стремление просвещать молодёжь, опираясь на исторические источники. В статье анализируются инициативы Бегимкулова по проведению воды в Дашт, строительству клуба и чайханы, возведению кошар для скотоводов, а также значительному увеличению поголовья скота в селах Новур и Саксандара.

Ключевые слова: Чули Бегимкулов, деревня Дашт, мироб, история ирригации, водоснабжение, благоустройство, честность, самоотверженность, советские проверки, развитие животноводства, сельское хозяйство, социальное развитие.

CHO'LI BEGIMQULOV – THE FOUNDER OF THE IRRIGATION MASTERS OF THE KASHKADARYA REGION

Annotation

This article provides a scholarly analysis of Cho'li Begimqulov's role in the irrigation history of Dasht village and his practical contribution to the socio-economic development of the region. The study examines his activities as a mirob, his initiatives in water distribution and the construction of irrigation structures, as well as his efforts to improve the living conditions of the local community. The article highlights Begimqulov's honesty, dedication, and loyalty, along with his commitment to educating the younger generation, as supported by historical sources. It also analyzes his initiatives such as bringing water to Dasht, building a community club and teahouse, constructing shelters for herders, and significantly increasing livestock numbers in the villages of Novur and Saksandara.

Keywords: Cho'li Begimqulov, Dasht village, mirob, irrigation history, water management, rural development, integrity, dedication, Soviet inspections, livestock development, agriculture, social progress.

Kirish. Qashqadaryo vohasining cho'l hudularini o'zlashtirish va yangi dehqonchilik hududlarini barpo etish jarayoni tarixiy manbalarda alohida ahamiyatga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biridir. Ayniqsa, Qarshi cho'lining chekka manzillaridan biri bo'lgan Dasht qishlog'iga suv yetkazish masalasi uzoq vaqt davomida mahalliy aholi uchun hayot-mamot darajasidagi ehtiyoj sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur hududning keskin kontinentalligi, suv manbalarining uzoqliligi, tabiiy releafning notekisligi va yer osti suvlarining pastligi suv ta'minoti bo'yicha mahalliy aholi oldiga murakkab muammolarni qo'ygan.

Shu sharoitda suvni taqsimlash, ariq va zovurlar qurilishini boshqarish, mavjud suv manbalaridan oqilona foydalanish vazifasi miroblik maktabining ahamiyatini yanada oshirgan. O'zbekistonning irrigatsiya tarixida mirob – faqat suv taqsimlovchi amaliy mutaxassis emas, balki mahalla va

qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim shaxs sifatida ham qadrlanadi. U yer-suv munosabatlaridagi adolat, mehnatni tashkil qilishda intizom va resurslardan samarali foydalanish tamoyillarining kafolati bo'lishi lozim bo'lgan.

Dasht qishlog'iga suv keltirilishi bilan bog'liq ilk tashabbuslar ana shu sharoitda shakllangan bo'lib, tarixiy manbalarga ko'ra, bu jarayonning boshida Cho'li Begimqulov nomi turadi. U o'z davrining mohir miroblaridan biri sifatida nafaqat mavjud ariq tarmoqlarini qayta tiklash, balki yangi sug'orish yo'nalishlarini ochish, suv chiqarish texnikasini takomillashtirish hamda jamoalarning mehnatini uyushtirish orqali Dasht hududida yangi hayot maydonlarining paydo bo'lishiga, chorvachilik va dehqonchilikni rivojlanishiga asos yaratgan. Begimqulovning tashabbuslari natijasida qishloqda bog'dorchilik, poliz ekinlari, g'alla va paxta yetishtirish ancha

jonlanib, mahalliy aholining turmush sharoiti barqarorlashgan, yerlarning ekin maydoniga aylanishi esa iqtisodiy o'sishga xizmat qilgan.

Uning faoliyatini o'rganish nafaqat bir shaxsning mehnatini yoritish, balki mahalliy suv xo'jaligi tarixidagi muhim davrni rekonstruksiya qilish, irrigatsiya amaliyotining an'anaviy shakllari va ularning ijtimoiy rolini anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, Cho'li Begimqulovning miroblik faoliyati orqali XX asrning birinchi yarmida mahalliy jamoalarda tabiiy resurslardan foydalanish tajribasi, suv xo'jaligi boshqaruvi va qishloq xo'jaligi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari shakllangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Cho'li Begimqulovning hayoti, miroblik faoliyati va Dasht qishlog'i rivojidadagi o'rni ilmiy asosda yoritishda mavjud yozma, og'zaki va video manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, bu manbalar bir-birini to'ldiruvchi turli xildagi ma'lumotlardan iborat bo'lib,

Tadqiqotda foydalanilgan manbalar turli tabiatga ega: video materiallar, og'zaki guvohliklar, biografik kitoblar va internet manbalari. Ularning har biri Cho'li Begimqulov shaxsining turli qirralarini yoritadi. Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur adabiyotlar majmuasi Cho'li Begimqulovning tarixiy shaxs sifatidagi o'rni ko'p qirrali yondashuv bilan aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Cho'li Begimqulovning Dasht qishlog'i irrigatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy tahlil jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va ob'yektivligini ta'minlash maqsadida tarixiy-tahliliy, biografik, xronologik ixchillik, etnografik, og'zaki tarix metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqotni ko'p qirrali yondashuv asosida olib borish, Cho'li Begimqulovning tarixiy shaxs sifatidagi o'rni chuqur va asosli yoritish, uning o'lka rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy va xolis baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlaganimizdek, ushbu yo'nalishda xizmat qilgan va o'z davrida hukumatning maxsus e'tiroflariga sazovor bo'lgan vohamizning eng dastlabki suvchilaridan biri bo'lgan Cho'li Begimqulov hisoblanadi. 1901-yil Qarshi tumani Dasht qishlog'ida tug'ilgan[1]. Cho'li bo'lib yotgan bu qishlog'da tug'ilgan go'dakka shunday ism qo'yildi. Suv tanqis bo'lgan hamda suv manbalari mavjud bo'lmagan bir davrda qishloqning mirobi sifatida ish boshlagan Cho'li Begimqulov o'z ishini halol bajargan fidoiy suvchi sifatida barcha qishloq aholisining e'tirofiga va hurmatiga erishgan.

Cho'li Begimqulovni Qashqadaryodagi suvchi-miroblarning otasi, ya'ni bugungi kun tili bilan aytganda irrigator deyish mumkin. XX asr 30-yillarida Respublikaning barcha hududlarida, ayniqsa, Qashqadaryoda ham suv tanqisligi yuqori edi. Cho'li Begimqulov shunday bir paytda markazga suv manbalari yetishmasligi va hududga suv inshootlari keltirishi haqida o'zining talablari bilan ko'p bora chiqqan[2]. Qarshi hududiga Amudaryodan suv keltrish masalasini qo'ygan dastlabki miroblardandir. Ushbu davrda Cho'li ota vohada tashkil qilingan suv ta'minotchilari Bo'limining boshlig'i sifatida Qashqadaryoda o'ziga xos bir maktab yaratgan, yo'l boshchi bo'lgan[3].

Qarshi cho'liga, Dasht qishlog'iga, asrlar davomida qaqrab yotgan yerlarga suv keltirishni va buning ortidan suv bilan ta'minlangan minglab gektar yerlarga paxta, g'alla, bog'lar barpo etib, fuqarolarining turmush sharoitini yaxshilash imkonligini hukumat oldiga qo'ygan tashabbuskorlardan biri ham Cho'li Begimqulov hisoblanadi.

Kolxoz harakatining asoschisi (1930), 1931-yilda Butunitiftoq bolsheviklar kommunistik partiyasiga a'zo bo'lib,

shu yili O'zbekiston SSR Qarshi tumani „Qizil yulduz“ kolxoziga rais etib saylangan va kolxozni rivojlantirgan.

Kamtarin va halol bo'lgan bu inson o'zining hurmati bilan nafaqat qishloq ahli orasida hatto rahbarlarning ham hurmatiga sazovor bo'lgan. Qishloq aholisining barini birdek yaxshi ko'rgan Cho'li Begimqulov hatto o'z hisobidan kambag'al aholini qornini to'yg'azganligini qishloq oqsoqollari g'urur bilan eslashadi. Shuningdek, ilmi bo'lishni istagan har bir yosh borki, ularni qo'llab-quvvatlagan. Novur va Saksandara qishloqlari Cho'li otaning harakati bilan chorvachilikni rivojlantirishda eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Qishloqlar davlat rejasini ortig'i bilan yakunladi. Bu kishi tinimsiz mehnatni ham va dam olishni ham joyiga qo'yan. Hatto mehnatkash chorvadorlar sharafiga ularni ko'nglini ko'tarish uchun poytaxtdan o'z davrining mashhur artistlar guruhini keltirib yaylovda konsert tashkil qilganligi dalilini keltiradi qishloq nuroniysi Polvonqul To'liyev.

Cho'li Begimqulov Qashqadaryoda birinchi mehnat Qahramoni bo'ldi. Natijada avval 1939-yilda Qarshi tumani ijroiya qo'mitasi raisi, keyinchalik esa Qashqadaryo viloyatini tashkil etish bo'yicha tashkiliy qo'mitaga rahbarlik (1943-yil yanvar oyida) qilib, 1943 - 1945-yillarda Qashqadaryo viloyati ijroiya qo'mitasi raisi vazifasida mehnat qilgan[4]. 1958-yil 6-avgustdagi Farmoni bilan qo'ychilikni rivojlantirish, go'sht, jun va qorako'l terisi ishlab chiqarish va davlatga topshirishni ko'paytirishda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlari uchun, shuningdek fan va ilg'or tajriba yutuqlaridan o'z faoliyatida keng foydalanгани bois unga Sotsialistik Mehnat Qahramoni berilgan[1].

U 1946, 1950, 1958-yillarda uch marotaba Lenin ordeni mukofotlangan. 1945, 1957-yillarda ikki marotaba Mehnat Qizil Bayroq ordeni, 1947-yilda Qizil Yulduz ordeni bilan mukofotlangan.

Cho'li ota ilohiy kuchga ega bo'lgan shaxs bo'lgan. Har qanday mojaroni ham silliqqina hal qilgan, deya eslaydi O'z SSR VM Raisi, Qashqadaryo viloyati Partiya qo'mitasi 1-kotibi bo'lgan Rahmonqul Qurbonov[6;35].

O'z umrini qishloqni rivojlantirishga, aholini farovon hayotini ta'minlashga qaratgan bu fidoiy insonni hatto Qashqadaryoga kelgan har bir rahbar bir yo'qlamay ketmagan. Usmon Yusupov qadrdon do'sti bo'lsa, Sharof Rashidov rahbarlik faoliyatida bu insonni doimo hurmatini joyiga qo'ygan.

Cho'li Begimqulov san'atni qadrlagan inson sifatida qishloqda Klub qurilishiga bosh-qosh bo'lgan va bu klubga doimo o'z davrining mashhur san'atkorlari konsert qo'yishga kelgan, teatrlar sahnalashtirilgan. Halima Nosirova, Orifali Mahsimov, O'lmas Umarbekovlar shular jumlasidandir.

Sovet davrida Xrushshov yillarida turli chaqiriqlar paydo bo'lib qolgan kezlarda "dala malikasi" degan gap o'yab topildi [6;11]. Bir yilda 3 mln tonna go'sht rejasini bajaramiz degan shiorlar yoyildi. Ryazanliklar tashabbusi ittifoq hududlarida tarqaldi. Amaldorlardan biri katta yig'inlarning birida Cho'li Begimqulovni katta ana shu katta tashabbusga qo'shilamiz" deb gapirtirgan. Oxir-oqibat minglab molar, hatto sigirlar ham go'shtga topshirilib ketgan. Natijada ryazanlik tashabbuskorlardan biri o'z joniga qasd qildi. Tekshiruvlar, so'roqlar ortdi. Cho'li Begimqulov ham shu tekshiruvlarda tik turib so'roq qilindi, afsuski bu Otaning qaddini bukdi, sog'lig'iga jiddiy ta'sir qildi. Ota Sharof Rashidovning aralashuvi bilangina Naymushinning changalidan olib chiqildi[2]. Zo'ravonlik siyosatining asl maqsad-mazmunini anglagan Cho'li Begimqulov shu bilan qayta o'nnglanmadi.

Bevaqt o'lim jonkuyar insonni 1963-yilda olib ketdi. Vafot etgan Cho'li Begimqulovning xonadoniga ta'ziyaga kelgan Sharof Rashidov bu kishining uylarini ko'rib hayotda doimo halol bo'lib ishlaganliklariga yana bir bor amin

bo'lganlar, deydi irrigator Ikrom Yusupov. Oddiy paxsa devorlardan qurilgan va nurab borayotgan uyni ko'rib, hayron qolgan rahbar Sharof Rashidov shu yerning o'zidayoq Cho'li Begimqulov yashaydigan ko'chada qaytadan yangi uylar solinishi topshirig'ini berib ketgan va hudud tez orada go'zal qiyofaga kirganligini xotirlaydi[7]. Cho'li ota Sharof Rashidov so'zi bilan aytganda "afsonaviy xalq irrigatori" bo'lgan[6;41]. 1973-yilda Nishonda o'zlashtirilgan yerlarda tashkil etilgan Cho'li Begimqulov nomidagi 9-sonli paxtachilik sovxosi uning nomi bilan ataladigan bo'ldi. Qishloqning 7-o'rtasida umumta'lim maktabiga bu insonning nomi berildi[6;82].

Cho'li Begimqulovning hayoti va faoliyati Dasht qishlog'i tarixida shaxs omilining naqadar hal qiluvchi omil ekanligini yaqqol ko'rsatadi. U halolligi, fidoiyligi, tashabbuskorligi va xalqparvarligi bilan o'z zamonidagi oddiy mirob emas - balki butun qishloqning ma'naviy tayanchi, bunyodkor rahbari - OTAsi darajasiga ko'tarilgan. Usmon Yusupov bilan do'stona munosabatlar, Sharof Rashidovning unga bo'lgan hurmati Cho'li Begimqulovning respublika miqyosida tan olingan, vijdonli va jonkuyar rahbar bo'lganidan dalolat.

Uning eng katta xizmatlaridan biri - Dasht qishlog'iga suv keltirishi, bu orqali agrar hayotni jonlantirishi va qishloqning iqtisodiy manzarasini tubdan o'zgartirishi bo'ldi. Suv kelishi nafaqat ekin maydonlarini kengaytirgan, balki klub, choyxona, qo'tonlar kabi ijtimoiy ob'yektlarning barpo etilishiga zamin yaratgan. Begimqulovning tashkiliy salohiyati va xo'jalik yuritish madaniyatini strategik darajada bilishi ham alohida tahsinga sazovor. U yoshlarni ilmli qilishga o'ta mas'uliyat bilan yondashgani, o'zidan keyingi avlodni bilimli va zamonasining kerakli kadrlari soni va sifatini oshirishdagi insoniy yondashuvlari bilan ham ajralib turadi.

Shu bilan birga, uning shaxsiy hayoti bu xizmatlarga tamoman teskari tarzda nihoyatda kamtarona kechganligi, o'zi uchun davlat mulkiga daxl qilmaganligi, shaxsiy boylik orttirishga intilmaganligi, o'zini, kuchini, molini faqat qishloq rivoji hamda aholi farovonligiga xizmat qilishga bag'ishlaganligi bugun yoshlarga o'rnatilgan ibrat maktabidir. Bu insonga havas ila Abdusalom Pardayev, Toir Ergashev kabi halol irrigator insonlar kashf etilganligiga tarix guvoh.

Biroq tarixning achchiq haqiqatlaridan biri shundaki, bunday fidoiy insonlar ko'pincha sovet byurokratiyasi

tomonidan e'tirof etilmagan. XX asr 60-yillarida unga nisbatan tekshiruv va tergovlarning o'tkazilishi, xizmatlari baholanmay, aksincha shubha bilan qaralishi Cho'li Begimqulovni ruhan sindirgan. Bu holat sovet davrida mahalliy yetakchilarga nisbatan keskin nazorat, siyosiy ehtiyotkorlik va ba'zan adolatsiz yondashuvning umumiy manzarasini ham aks ettiradi.

Xulosa va takliflar. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Cho'li Begimqulov o'zining halolligi, xalq uchun sadoqatli mehnati, jamiyat manfaatini shaxsiy hayotidan ustun qo'ya olishi bilan tarixiy shaxs sifatida qadrlanadi. Uning faoliyati - qishloqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tiklanishida muhim o'rin tutgan; biroq sovet davri siyosiy tartiblari sabab Ch. Begimqulov o'z salomatligini yo'qotdi. Ruhan sindi. Shunday bo'lsa-da, xalq xotirasi va tarixiy haqiqatlar Cho'li Begimqulovning haqiqiy xizmatini davom etib e'tirof etmoqda. Dasht qishlog'ining rivojlanishida beqiyos iz qoldirgan fidoiy bunyodkor, halol rahbar va xalqning chinakam xizmatkori - Cho'li ota Begimqulov doimo xotiramizda, mangu hayotdir.

Dasht qishlog'i hududida Cho'li Begimqulovning qishloq rivoji va suv keltirilishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni to'laqonli gavdalantirish maqsadida zamonaviy formatdagi interaktiv kichik muzey tashkil etish taklif etiladi. Mazkur muzey multimedia texnologiyalariga asoslangan bo'lib, tashrif buyuruvchilarga, ayniqsa yosh avlodga, tarixni jonli va hissiy idrok etish imkonini yaratishi lozim. Muzeyda virtual reallik (VR) yoki kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish orqali Cho'li Begimqulov boshchiligidagi qazilgan ariq yo'llari, suv chiqarish jarayonining mashaqqati, o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar harakatlanadigan animatsiyalar orqali namoyish etilishi maqsadga muvofiq. Yoshlar maxsus ko'zoynaklar (VR/AR glasses) orqali tarixiy jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rayotgandek, voqea ichida turgandek his etishi, suvni qishloqqa olib kelish naqadar mashaqqatli bo'lganini chuqur anglashiga xizmat qiladi. Ushbu interaktiv muzey nafaqat Begimqulov faoliyatining tarixiy qiymatini o'z aksini topishiga, balki mintaqaning suv xo'jaligi merosini yangi avlod ongida qadrlash, mehnat va fidoyilik timsoli sifatida targ'ib qilishga xizmat qiluvchi ma'naviy-ma'rifiy platforma bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Chuli Begimqulov ning hayoti va ijodi
2. Botir Rahimov. Irrigator. Chuli Begimqulov ning hayoti va ijodi - смотреть онлайн в поиске Яндексa по Видео. 6:09 daqiqasi
3. Polvonqul To'liyev. "Nuroni" jamg'armasi Qarshi tumani bo'limi raisi. 2022 yil, 18-noyabr.
4. Nuriddinov Ro'ziboy. Mehnat faxriysi. 2022-yil.
5. Chuli Begimqulov - Vikipediya
6. Mo'minov O. Bezavol umr. - Qarshi, "Nasaf". - B. 35.
7. Ikrom Yusupov, irrigator. 2022 yil, avgust.